

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI



## Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik



2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



# Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*




## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **30 082** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **2 392** taga ko'paygan yoki **8,6 %** ga oshgan.- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **15,0** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2022- yilning yanvar - dekabrda **4 413** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **68,8%** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Shahar va tumanlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **30 082** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 413** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahrida **8 462** tani yoki jamiga nisbatan **28,1 %** ni tashkil etdi.

1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbatan **15,0** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan **1,0** birlikka oshgan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **35,8** birlik Buxoro sh. **29,3** birlik, Kogon tumanida **21,3** birlik, Kogon sh. **18,7** birlik, Romitan tumanida **17,8** birlikka yetdi.

Shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Qorovulbozor tumani  
– 35,8 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Buxoro tumani  
– 13,4 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Qorako'l tumani  
– 9,2 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 35,8 birlik, Buxoro shahrida 29,3 birlik, Kogon tumanida 27,3 birlik, Kogon shahrida 18,7 birlik, Romitan tumanida 17,8 birlik, Peshku shahrida 13,7 birlik, Buxoro tumanida 13,3 birlik, Jondor tumanida 11,7 birlik, Vobkent tumanida 11,1 birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Qorovulbozor tumani  
35,8

Buxoro shahar  
29,3

Kogon tumani  
21,3

Kogon shahar  
18,7

Romitan tumani  
17,8

Peshku tumani  
13,7

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2021- y.		2022- y.
284	Olot	150
510	Buxoro	354
393	Vobkent	265
757	G'ijduvon	467
367	Kogon	387
452	Qorako'l	241
132	Qorovulbozor	98
331	Peshku	223
498	Romitan	384
491	Jondor	371
491	Shofirkon	256
1391	Buxoro sh.	1059
316	Kogon sh.	158


2022- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkilotilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Qorovulbozor	2,2
Olot	3,4
Kogon sh.	3,6
Peshku	5,0
Qorako'l	5,5
Shofirkon	5,8
Vobkent	6,0
Buxoro	8,0
Jondor	8,4
Romitan	8,7
Kogon	8,8
G'ijduvon	10,6
Buxoro sh.	24,0


2022- yilda shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buxoro shahri – **24,0** %, G'ijduvon tumani – **10,6** %, Kogon tumani – **8,8** %, Romitan tumani – **8,7** %, Jondor tumani – **8,4** %, Buxoro tumani – **8,0** %, Vobkent tumani – **6,0** %, hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2022 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma savdo sohasida **1 466** ta, sanoatda **652** ta hamda tashish va saqlash **635** ta yangidan tashkil etilgan.


Shaharlar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma Buxoro shahrida **1 059** ta G'ijduvon tumani **467** ta, Kogon tumanida **387** ta hamda Romitan tumanida **384** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **25 937** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **8 713** ta (yoki **33,6 %**), xizmatlar sohasida **7 168** ta (yoki **27,6 %**), sanoat sohasida **4 651** ta (yoki **17,9 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **3 332** ta (yoki **12,8 %**) va qurilish sohasida **2 078** ta (yoki **8,0 %**) tashkil etilgan.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>		
Aralash qishloq xo‘jaligi	120	12,4
Parrandachilik	316	11,1
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	331	8,8
Sabzavotlar etishtirish	291	7,1
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	47	5,8
<b>Sanoat</b>		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	464	13,2
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	152	7,6
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	78	4,9
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	131	4,5
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	128	4,2
<b>Qurilish</b>		
Turar joy binolarini qurish	265	29,2
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	312	23,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	203	20,4
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish		5,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	44	4,6
<b>Savdo</b>		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	1684	27,2
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	735	17,4
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	436	8,7
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	567	7,0
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	443	5,4
<b>Xizmatlar sohasi</b>		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	427	12,7
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	798	9,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	585	7,7
Avtomobil transportida yuk tashish	922	6,3
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	129	3,5

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **1 684 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **27,2 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2022- yilda shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 237,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (**1 578,2** mlrd. so'm), Kogon tumani (**1 523,3** mlrd. so'm), Jondor tumani (**817,9** mlrd. so'm) va Buxoro tumani (**782,1** mlrd. so'm) G'ijduvon (**699,1** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Olot tumanida (**291,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar, %da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **33,9%** ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kogon tumani (**99,4%**), Buxoro tumani (**98,6 %**), Jondor tumani (**87,5 %**), Olot tumani (**80,6 %**), Vobkent tumani (**79,2 %**), Shofirkon tumani (**74,2 %**), Peshku tumani (**61,9 %**), Buxoro shahri (**53,3 %**), Kogon sh. (**49,9%**) va Qorako'l (**47,6 %**) tumanlari tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 766,0** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **81,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **109,5 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (**1 897,3** mlrd. so'm), Gijduvon (**650,2** mlrd. so'm), Shofirkon (**527,5** mlrd. so'm), Buxoro (**5 17,0** mlrd. so'm), Peshku (**507,3** mlrd. so'm), Romitan (**486,2** mlrd. so'm) hamda Jondor (**462,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9 498,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **44,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **117,4 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Buxoro tumani (**2 020,5** mlrd. so'm), Buxoro sh. (**1 426,2** mlrd. so'm), Peshku (**1 144,6** mlrd. so'm), Gijduvon (**1 041,8** mlrd. so'm), Kogon (**695,7** mlrd. so'm), Romitan (**560,9** mlrd. so'm) hamda Vobkent (**711,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **33 212** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **97,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **103,6 %** ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Jondor (**4 327,6** mlrd. so'm), Gijduvon (**3 864,6** mlrd. so'm), Buxoro (**3 492,6** mlrd. so'm), Romitan (**3 274,1** mlrd. so'm), Peshku (**3 177,7** mlrd. so'm) hamda Qorako'l (**3 142,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




## 2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

## 2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **15 497,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **85,2 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **105,9 %** ni tashkil qildi.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm



2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (**4 868,2** mlrd. so'm), Gijduvon (**2 947,0** mlrd. so'm), Buxoro (**1 185,4** mlrd. so'm), Qorako'l (**1 146,3** mlrd. so'm), Romitan (**1 049,5** mlrd. so'm) va Jondor (**911,9** mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda

Buxoro sh.	2 368,4
G'ijduvon	1 635,5
Jondor	677,4
Buxoro	664,4
Romitan	616,1
Peshku	596,2
Vobkent	579,5
Shofirkon	539,5
Qorako'l	526,1
Olot	467,7
Kogon sh.	405,9
Kogon	403,8
Qorovulbozor	183,9


2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 664,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,9% ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Buxoro shahri (**2 368,4** mlrd. so'm), Gijduvon (**1 635,5** mlrd. so'm), Jondor (**677,4** mlrd. so'm), Buxoro (**664,4** mlrd. so'm), Romitan (**616,1** mlrd. so'm), Peshku (**596,2** mlrd. so'm) va Vobkent (**579,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, %da




## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **166,4** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **53,6 %** ni tashkil etdi.


## 2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buxoro sh. – **43,8%**, Kogon – **29,2 %**, Qorako'l– **16,0 %**, Romitan – **15,2 %**, Gijduvon– **10,1 %**, Buxoro **8,9%** va Kogon sh –**5,9 %**, eng past ko'rsatkich Vobkent tumanida – **2,6 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


## 2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **10 717,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **48,3 %** ini tashkil etdi.

### 2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Olot – **99,4 %**, Vobkent – **99,4 %**, Jondor – **99,3%**, Shofirkon – **98,9%**, Kogon – **97,7%**, Buxoro sh. – **92,4 %** ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk  
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,2%** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,5 %** ni tashkil qildi.




Yuk  
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **76,0 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi  
tashishda


2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,0 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,7%** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi  
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,0 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil qildi.

## 2022- yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil VI chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 274** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **7 499 (39,2 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **709 (55,6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **66 (7,2%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **36,7 % (468 ta)**, xizmatlar sohasida – **30,2 % (385 ta)**, sanoatda – **13,2 % (168 ta)**, qurilishda – **11,1 % (141 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **8,8 % (112 ta)** ni tashkil etdi.


## 2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi





# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022-yil VI chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Buxoro shahri (375 ta), G'ijduvon (136 ta), Romitan (118 ta), Buxoro (101 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning VI choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **51,0 %** ni, savdoda – **42,1 %** ni, sanoat va xizmatlar sohasida – **36,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **72,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **57,7 %** ni, sanoatda – **56,5 %** ni, savdoda – **53,4 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **6,6 %** ni, qurilishda – **5,7 %** ni, xizmatlar sohasida – **5,4 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 56,0 % ni, savdoda – 47,9 % ni, sanoatda – 44,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 62,5 % ni, xizmatlar sohasida – 54,3 % ni, sanoatda – 51,2 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 4,9 % ni, sanoatda – 6,2 % ni, savdoda – 3,6 % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	40,0	53,4	6,6
Band bo'lganlar soni	30,7	65,1	4,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,8	60,0	4,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	30,2	64,9	4,9
Raqobat muhiti	37,5	58,7	3,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	50,5	45,8	3,7
Band bo'lganlar soni	29,4	68,0	2,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,6	53,8	3,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	38,3	57,7	4,0
Raqobat muhiti	45,4	51,2	3,4


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli